



YANGI SANOAT IQTISODIYOTIGA O‘TISH TARQQIYOTNING ASOSIY MEZONIGA AYLANISHI KERAK

Payazov Murod Maksudovich

*Farg‘ona davlat texnika universiteti “Menejment va marketing” kafedrasida dotsenti.
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)*

Email: fayz19700308@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/717

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahonda mahsulotlar eksporti bo‘yicha eng yuqori o‘ntalikda joy olgan davlatdarni misol keltirish, ularning eksport mahsulotlari tarkibidagi mahsulotlarni tahlilini O‘zbekiston eksportidagi mahsulot turlariga solishtirilgan. Jahonning eng rivojlangan davlatlaridagi sanoatning rivojlanish sababalarini sanoat 4.0 ni rivojlanishi bilan bog‘lanilgan holda, ayrim rivojlanayotgan davlatlarning e‘tiboridan chetda qolayotgan jihatlarini yoritishga harakat qilingan. Asosiy maqsad rivojlanayotgan davlatlarning mahsulotlar eksportida yuksak raqobatbardoshlikni ta‘minlashlarida sanoat 4.0 ning asl mohiyatini tushunib, iqtisodiyotlarini rivojlantirishga e‘tibor qaratishlari va bu masalada bajarilishi kerak bo‘lgan masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat 4.0, integratsiya, globallashuv, sanoat inqilobi, iqtisodiy zonalar, eksport, import.

ПЕРЕХОД К НОВОЙ ИНДУСТРИАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ ДОЛЖЕН СТАТЬ ГЛАВНЫМ КРИТЕРИЕМ РАЗВИТИЯ

Паязов Мурод Максудович

доцент кафедры «Менеджмент и маркетинг» Ферганский государственный технический университет, доктор экономических наук, доцент.

Аннотация

В данной статье приводятся примеры десяти стран мира, входящих в первую десятку по объёму экспорта продукции, и проводится сравнение анализа продукции в их экспортной продукции с видами продукции, экспортируемой Узбекистаном. В статье предпринята попытка выделить причины развития промышленности в наиболее развитых странах мира в связи с развитием Индустрии 4.0, а также выделить аспекты, которые игнорируются некоторыми развивающимися странами. Основная цель — помочь развивающимся странам понять истинную суть Индустрии 4.0 в обеспечении высокой конкурентоспособности экспорта продукции, обратить внимание на развитие своих экономик и выделить вопросы, требующие решения в этой связи.

Ключевые слова: индустрия 4.0, интеграция, глобализация, промышленная революция, экономические зоны, экспорт, импорт.

TRANSITION TO A NEW INDUSTRIAL ECONOMY SHOULD BECOME THE MAIN CRITERION OF DEVELOPMENT

Payazov Murod Maksudovich

Associate Professor of the Department of “Management and Marketing” Ferghana State Technical University, Doctor of Economic Sciences (DSc)

Abstract

This article provides examples of ten countries ranked among the top ten by product export volume and compares their product analysis with those exported by Uzbekistan. The article attempts to identify the reasons for industrial development in the most developed countries in relation to the development of Industry 4.0 and highlight aspects that are ignored by some developing countries. The main goal is to help developing countries understand the true essence of Industry 4.0 in ensuring highly competitive product exports, focus on the development of their economies, and identify issues that need to be addressed in this regard.

Key words: industry 4.0, integration, globalization, industrial revolution, economic zones, export, import.

Kirish

Jahon iqtisodiyoti globallashib juda ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarni ham o‘z domiga tortib, integral rivojlanishga, sohalar va tarmoqlarning o‘zaro integratsiya jarayonlariga sabab bo‘lmoqda. Ushbu jarayonda xalqaro savdoda yuqori raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini qayd etgan holda yuqori rivojlanish tendensiyalarini hali hamon dunyoda eng yirik eksportchi davlatlar reytingida Xitoy, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Niderlandiya, Yaponiya, Italiya, Singapur, Xindiston [1] kabi davlatlar rivojlanayotgan iste‘molchilar talabalari, o‘zgaruvchan geosiyosat va texnologik taraqqiyot kombinatsiyasiga qaramay 2025-yilda ham globall eksport bozorida dominant o‘yinchi sifatida rivojlanib, liderlikni boy bermay kelmoqda. Ushbu jarayonda Xitoyning yirik ishlab chiqarish mashinasi to‘qimachilikdan tortib elektotexnika ishlab chiqarish sanoatini, AQShning ilg‘or sanoatlari va mustahkam ishlab chiqarish bazasi, zamonaviy texnologiya va qishloq xo‘jaligida ustunligini dunyoga ko‘rsatib qo‘ydi. Asosan, elektron uskunalari, mashinasozlik, mineral yoqilg‘i eksportida peshqadamlik qilgan bo‘lsa, Germaniya yuqori ishlab chiqarish va muhandislik aniqligi, asosan avtomobillar, yadro reaktivlari va mashinalar, elektr mashinaar va uskunalar bilan. Buyuk Britaniya avtomobil, mashina, farmatsevtika mahsulotlari bilan, Fransiya avtomobil, mashinasozlik, mineral yoqilg‘i eksport mahsulotlari turlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Birinchi eng yirik eksportchi sifatida Xitoy eksporti 3,51 trillion dollarni tashkil etdi. O‘zbekistonning 2024-yilda umumiy eksporti 26,9 mlrd. AQSh dollarni tashkil etdi. Kuchli o‘ntalikni 10 – o‘rinini egallagan Xindiston eksporti 824,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Oxirgi o‘ntalikdagi davlatdan O‘zbekiston eksporti 30 martaga pastligini ko‘rish mumkin. Review.uz ma‘lumotlariga ko‘ra “Harvard Growth Lab” tomonidan o‘tkazilgan tahlillar natijasiga ko‘ra O‘zbekiston jahon eksporti davlati orasida 80-o‘rinda [2] ekanligi qayd etilgan. Bu yerda masala eksportning miqdori to‘g‘risida ketmoqda. Shu o‘rinda biz eksport qilinayotgan mahsulotlarning turini kuzatadigan bo‘lsak, O‘zbekiston eksportida qimmatbaho metallar (tillo) [3] eksporti yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Jahon davlatlarida yuqori QQSga ega bo‘lgan mahsulotlar ulushining eksport mahsulotlari ruyhatida ko‘pligi kuzatilmoqda. O‘zbekistonda ham eksport mahsulotlari ruyhatida yuqori QQSga ega bo‘lgan mahsulotlar ulushini ko‘paytirishga bo‘lgan islohotlar keng sur‘atlar bilan amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi

Yuqoridagi holat mamakat iqtisodiyotini boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan potensial rivojlanishi uchun yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlarning O‘zbekistondan eksport bo‘layotgan mahsulotlar ro‘yhatida kamligini va ayrim mahsulot turlarining qo‘shish hamda eksportini ta‘minlashga e‘tibor qaratish vaqti kelganligini anglatadi. Shuning uchun ham mamlakat eksportini, tashqariga chiqib ketayotgan mahsulotlarni turi va ahamiyatiga ko‘ra chuqur ilmiy tahlillar asosida o‘rganib chiqish va ushbu jarayonlarning haqiqiy holatini o‘rganish asosida iqtisodiyotimizni rivojlanishi uchun taklif va xulosalar ishlab chiqish ilmiy-tadqiqot ishimizning dolzarbligini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida jahonda ilmiy-texnika taraqqiyotining mamlakatda sanoatni rivojlantirishga nisbatan afzalliklarni mamlakat iqtisodiyotni ustuvorligini belgilab berishdagi ustuvor ahamiyatini ko‘rsatib bergan. Bunda sanoati rivojlangan davlatlarning tajribasi jumladan eng rivojlangan davlatlarda sanoat 4.0 va ilmiy-texnika taraqqiyotining qiyoslash metodologiyasiga tayanilgan. Maqolani tayyorlashda dialektik, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ilmiy abstraksiya, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil usullardan foydalanilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi

Jahon savdosida yuqori eksport salohiyatiga ega davlatlar iqtisodiy islohotlarda sanoat inqilobini maqsadli qo‘llashlari ular tomonidan ishlab chiqilayotgan mahsulotlarning eksport raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qildi. “Sanoat inqilobi, zamonaviy tarixda agrar va hunarmandchilik iqtisodiyotidan sanoat va mashinasozlik ustunlik qilgan iqtisodiyotga o‘rtish jarayonidir”[4] deb ta‘kidlanadi Britaniya ensiklopediyasida. Ushbu texnologik o‘zgarishlar mehnat va yashashning yangi usullarini joriy qildi va jamiyatni tubdan o‘zgartirdi. Bu jarayon 18-asrda Britaniyada boshlanib, u yerdan dunyoning boshqa qismlariga tarqatildi. Ilgari fransuz yozuvchilari tomonidan ommalashtirilgan atama iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoni sifatida kengroq qo‘llanila boshlandi. 20-asrda Xitoy va Xindiston kabi xududlar sanoat inqilobini boshladilar. AQSh va G‘arbiy Yevropa kabi davlatlar 19-asrning oxirlarida ikkinchi sanoat inqilobini boshdan kechira boshladilar. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar sanoat rivojlanishining “Sanoat 4.0” to‘rtinchi davriga yetib keldilar. Sanoat inqilobining asosida, “Temir va po‘latdan foydalanish, yangi energetika manbalaridan, yoqilg‘i va harkatlantiruvchi kuchdan foydalanish, yangi mashinalarning ixtiroosi, zavod tizimi, transport va aloqa sohasidagi muhim o‘zgarishlar temir yo‘l, avtomobil, havo transporti, kommunikatsiya aloqa tizimlarining sanoatga tobora ko‘proq tadbiiq etilishi”[5] –kabilardir. “To‘rtinchi sanoat inqilobi avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish va robotlashtirish bilan birgalikda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga asoslangan bo‘lib, texnik, hamda iqtisodiy o‘zgarishlarga olib keladi”[6] sanoat 4.0 ning rivojlanishi bandlik darajasini 3 foiz va yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini 5 foizga oshishiga olib kelmoqda[7] sanoat 4.0 ning rivojlanishi texnologik axborotda mavjud bo‘lgan mintaqaviy to‘siqlarni kesib o‘tish, halqaro hamkorlik dasturini ishga tushirish va markazlashtirilmagan infratuzilmani qurish uchun zamin yaratadi[8].

Asosiy tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025 yil 26 may kuni mahalliy sanoat rivoji uchun yangi imkoniyatlarni belgilab berdi[9]. Mamlakatimiz Prezidenti, “Hozirgi sharoitda o‘zimizda bor xomashyoni chuqur qayta ishlab, qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish-eng asosiy masala”[10] – ekanligini ta‘kidladi. Shuningdek, O‘zbekiston Prezidenti farmoniga ko‘ra

halqaro sertifikat olishga moslashayotgan korxonalarining harajatlarini qoplab berish belgilandi. O‘zbekistonda sanoatni yanada rivojlantirish bosqichiga olib chiqish maqsadida erkin iqtisodiy zonlar va kichik sanoat zonalarini faoliyat yuritmoqda. Erkin iqtisodiy zonlar va kichik sanoat zonalarining asosiy maqsadi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotni ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etishga mo‘ljallangan hududlarndir. Asosiy maqsad alohida tanlab olingan hududlarda savdo, umumiy iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnik masalalarni hal qilishdan iborat. Mazkur masalaga ijobiy yondoshilganligi natijalarini O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylamasini dinamikasining o‘ziga borishidan bilishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda 2022-2024 yillarda eksport va import mahsulotlari hajmi¹

	Mahsulotlar tarkibi	2022	2023	2024
Eksport (mln. AQSh dollarida)				
1	Tovarlar	11239,3	10529,2	12263,2
2	Xizmatlar	3959,5	5640,4	7204,4
3	Oltin	4110,3	8672,9	7480,6
Jami:		19309,1	24869,5	26948,2
Import (mln. AQSh dollarida)				
1	Mashina va asbob uskunalar	9695,7	14935,2	13488,3
2	va boshqalar	28445,5	23723,9	25497,5
Jami:		38141,2	38659,1	38985,8
Importni eksportga nisbatan farqi		Importni kirib kelishi 2 marta yuqori	Importni kirib kelishi 1,5 marta yuqori	Importni kirib kelishi 1,4 marta yuqori
Import tarkibida mashina va asbob-uskunalar ulushi foizda		74,6%	61,4%	65,4%
Eksport tarkibida oltinning ulushi foizda		21,3%	34,9%	27,8

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki O‘zbekistonda eksport ham import ham o‘zish ko‘rsatkichlarini qayd etmoqda. Eksport hajmi xizmatlar hamda oltin eksportining ortishi hisobiga bo‘lsa, importning o‘zishi O‘zbekistonga kirib kelayotgan mashina va asbob uskunalarning yuqori ulushi bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Chunki import mahsulotlarining 2024-yil yakuniga ko‘ra tarkibidagi ulushi 65,4 foizni tashkil etgan. Ushub ko‘rsatkich import mahsulotlarining yarimidan ko‘pdir. Ikkinchi masala mamlakat eksport mahsulotlari tarkibida oltinning eksportdagi ulushi 2024 – yil yakunlariga ko‘ra 27,8 foizni tashkil etgan. Mazkur holatdan ikki xil xulosaga kelish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Oltinning eksporti va mashina va asbob–uskunalar importining O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ahamiyati²

¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
<https://stat.uz/uz/>

Oltin eksporti		
	Ijobiy tomoni	Salbiy tomoni
1	Davlatning xorijiy valyutaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga xizmat qiladi	Mamlakat tabiiy xomashyo reuralarini kamayishiga sabab bo'ladi
2	Davlat budjeti g'aznasini to'ldirishga xizmat qiladi	Past qo'shimcha qiymat bilan sotilishi kam nisbatan daromad keltiradi
Mashina va asbob–uskunalar importi		
	Ijobiy tomoni	Salbiy tomoni
1	Mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga xizmat qiladi	Davlatga oltin savdosidan tushayotgan va boshqa valyutalarni chetga chiqib ketishiga sabab bo'ladi
2	Mamlakat xomashyo bazasidan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi davlatlar safiga qo'shiladi	Mamlakat mashina va asbob uskunalarini sotib olishga davlatning valyuta zaxirasi yetmaganida xalqaro valyuta onidan qarz oladi
3	Mamlakatda sanoat industriyasi, xizmat ko'rsatish tizimi zamonaviy texnika bilan qurollanadi.	Mamlakatdagi aksariyat korxonalar va tashkilotlar mashina va asbob-uskunalarini uzoq muddatlarga kreditga olganliklari sababli topgan daromadlarning ko'p qismini uzoq yillar qarzga yo'naltirishga to'g'ri keladi.

Birinchi va ikkinchi jadval ma'lumotlarni sinxronlashtirib tahlil qilib chiqsak. Davlat budjetiga kelib tushayotgan valyuta zahirasi aksariyati mamlakat sanoat industriyasi, xizmat ko'rsatish tizimni zamonaviy texnika bilan qurollanishiga ishlatilayotganligini ko'ramiz. Idagi tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkin. Davlat tomonidan 2024 yilda oltinni eksport qilish natijasida 7480,6 mln. AQSh dollari davlat g'aznasiga kelib tushayotgan bo'lsa mashina va asbob–uskunalar importi uchun 13488,3 mln. AQSh dollari ishlatilyapti. Xuddi shunday esport bilan import salbiy balansga ega, import eksportdan 2024-yil yakuniga ko'ra 1,4 marta yuqori. Taxillar shuni ko'rsatmoqdagi O'zbekiston iqtisodiyotining importga qaramligi yuqori hisoblanadi.

2024-yil yakunlariga ko'ra jahon eksportida kuchli o'ntalikka kirgan mamlakatlarning eksport-importidagi mahsulotlar ulushi tahlili shuni ko'satdiki, Xitoy mamlakati eksportining 50 foizini[11] mashina, tarnsport va uskunalar tashkil etgan, importida ko'proq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari uchun xomashlar, kimyoviy vositalar, enegretika resuralarni soatib olganligini kuzatishimiz mumkin[12]. Xuddi shuningdek, AQShida eksport va importni ko'rib chiqqanimizda, eksport mahsulotlari tarkibida 38 foiz sanoat mahsulotlari, 29 foizi kapital eksportini tashkil etgan[13]. AQSh dunyoda eng yirik importer davlat hisoblanib asosan halq iste'moli tovaralari importi jami imporning 27 foizini, kapital mahsulotlar 26 foizni, sanoat uchun xomashyo 25 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin[14]. Ushbu tahlillar hamda O'zbekiston eksporti va importini jahon davlatlariga solishtirishdan ma'lum bo'ldiki, hali-hanuz O'zbekiston iqtisodiyoti ma'lum darajada

imporga qaramligi yuqori, ayniqsa mashina va asbob-uskunalarga bo‘lgan qaramligi hamda rangli metallarning xorijiy davlatlarga eksportining yuqoriligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa va takliflar

Jahonda davlatlar jahon bozorida o‘z o‘rni va mavqeyiga ega bo‘lish maqsadida o‘z mamlakati iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Ba’zi davlatlar sanoat 4.0 rivojlanish darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsalar, ba’zilari sanoatning 2.0 darajasiga ham ko‘tarilganlari yo‘q. Lekin, shunday bo‘lsada iqtisodiyotning globallashuvi va integratsiyasi sharoitida jahon davlatlari bilan raqobatlashmoqdalar. Lekin ming afsuski o‘z brendlarni chiqarishga uni dunyoga tanitishda qiynchiliklarga uchramoqdalar.

Jahon bozorida yuqori raqobatkorlikka erishish, bozordagi eksport mavqeyini mustahkamlash uchun rivojlanayotgan davlatlar bir qator ishlarni amalga oshirishlari kerak bo‘ladi.

- Sanoatni qanday holatda ekanligin, jahonning rivojlangan mazkur turdagi sanoat ob’ektlari bilan solishtirish orqali aniqlashtirib olish kerak bo‘ladi, bu chuqur iqtisodiy tahlillarni talab qiladi.

- Davlat tomonidan mashina va asbob-uskunalarini yaratuvchi ilmiy-tadqiqot makazlari faoliyatini qo‘llab –quvvatlash tizimini ishlab chiqish kerak. Yirik tajriba-konstruktorlik ishlab chiqarish, tajriba-sinov uchastkalarini tashkil etish lozim.

- Mashina, sanoat uchun ishlab chiqarish texnikasini ishlab chiqarish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish lozim.

- Yirik sanoat ob’ektlaridagi mavjud stanoklarning analoglarini ishlab chiqarish, modernizatsiya qiluvchi ishlab chiqarish, tajriba-sinov ishlab chiqarish markazlarini yaratish kerak.

- Ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini ishlab chiqarish sanoati bilan integral bog‘lanishini ta’minlash. Ilmiy-tadqiqot institutlari bir xil ishlab chiqarishgina emas, mahsulot marketingi, hayot siklini hamda faolligini ta’minlash zarur bo‘ladi. Shu maqsadda ushbu ilmiy-tadqiqot markazlarini mustaqil xo‘jalik yurituvchi hamda davlat oldida xisobdor muassasa sifatida faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Seair exim solutions information for business. <https://www.seair.co.in/blog/largest-exporters-in-the-world.aspx#>:

2. Harvard Growth Lab: за 5 лет Узбекистан поднялся в рейтинге экономической сложности на 25 позиций. <https://review.uz/post/harvard-growth-lab-za-5-let-uzbekistan-podnyalsya-v-reytinge-ekonomicheskoy-slojnosti-na-25-pozicij>.

3. Экспорт Узбекистана достиг \$27 млрд: фрукты, техника и золото. <https://ekonomist.kz/editor/eksport-uzbekistana-dostig-27-mlrd-frukty-tekhnika-i-zoloto/>

4. Encyclopedia Britannica Industrial Revolution <https://www.britannica.com/event/Industrial-Revolution>

5. Encyclopedia Britannica Industrial Revolution <https://www.britannica.com/event/Industrial-Revolution>

6. Nasimov D.A. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. No 4, iyul-avgust, 2020 yil

7. Luyanda Dube Williams. Concepts of Digital Economy and Industry 4.0 in Intelligent and information systems // International Journal of Intelligent Networks. Volume 2, 2021, Pages 122-129.

8. Wenrong Pan, Tao Xie, Zhuwang Wang, Lisha Ma. Digital economy: An innovation driver for total factor productivity // Journal of Business Research. Volume 139, February 2022, Pages 303-311.

9. <https://president.uz/uz/lists/view/8154>

10. Mahalliy sanoat rivoji uchun yangi imkoniyatlar belgilandi.
<https://president.uz/uz/lists/view/8154>

11. Trading economics. <https://ru.tradingeconomics.com/china/exports>

12. Trading economics. <https://ru.tradingeconomics.com/china/imports>

13. Trading economics. <https://ru.tradingeconomics.com/united-states/exports>

14. Trading economics. <https://ru.tradingeconomics.com/united-states/imports>